

## KO'CHIMLAR VA ULARNING TURLARINI O'QITISHGA OID TAVSIYALAR

**Maxmadisoyeva Dilnoza Qobiljon qizi**

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU 3-kurs talabasi.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ko'chim turlari: Metanimiya, metafora, sinekdoxa, vazifadoshlik ularni o'qitish haqida ma'lumotlar berilgan va ularni o'quvchilarga qanday metodlar bilan tushuntirish haqida tavsiyalar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *metafora, sinekdoxa, metanimiya, metod.*

9-sinf ona tili darsligida ko'chimlar va ularning turlari haqida ma'lumot keltirilgan<sup>12</sup>. Ko'chimlar mavzusini o'rgatish o'quvchilarda bir so'zning turli xil ma'nolarda kelishi va kinoya, tag ma'nosini anglashga yordam beradi.

**Ma'noning ko'chishi** - muayyan so'zning avval angelayotgan ma'nosidan boshqa ma'noni anglatishidir Masalan ; **“Odamning qulog'i”** o'z ma'nosida haqiqatdan ham odamning eshitish uchun mo'jallangan tana a'zosi **“qozoning qulogi”** odamning qulog'iga shakl tomonlama o'xshaganligi sababli ma'no ko'chish hodisasi yuz bergan.

**Metafora, metonimiya, sinekdoxa** kabi ma'no ko'chish turlari mavjud. Xalq orasida ishlatiladiga” **Havo aynidi** “ degan jumlaning tahlil qilsak, bunda ko'rinib turibdiki, **aynimoq** so'zini ovqatga nisbatdan ishlatilsak o'z ma'nosida ishlatgan bo'lamiz, sababi ovqat haqiqatdan ham aynib qolishi mumkin, lekin havo aynimaydi, bu birikmada ma'no ko'chgan. Ma'no ko'chish turlarini o'quvchilarga o'qitishda bir qancha metodlardan foydalanish va boshqa fanlar bilan integratsiya qilish mumkin. Bu mavzuni o'qitishda metodlardan va o'quvchini mustaqil bajarishi uchun topshiriqlar berib samarali natijalarga erishsa bo'ladi. Ona tili fanini bir qator fanlar bilan adabiyot, musiqa, axborot kommunikatsiya vositalari bilan uzviy holda bog'lab o'qitish mumkin. Cho'lponing qalamiga mansub bo'lgan quyidagi jumlagi e'tiborimizni qaratsak.<sup>13</sup>

Ot minganda, qushlar kabi uchguvchi,  
Erkin-erkin havolarni quchguvchi,  
Otchopganda, uchar qushni tutquvchi,  
Uchar qushday yosh yigitlar qayerda?  
Tog' egasi-sor burgutlar qayerda?

Bu parcha bevosita adabiyot fani bilan bo'g'liq, quyidagi berilgan misralardan o'quvchilar ko'chma ma'no va uni turlarini topish topshirig'i vazifa qilib berish, nafaqat bir bu misra bilan cheklanib qolmay o'quvchilarga asarlarda qo'llanilgan ma'no ko'chish turlarini topishni, vazifa qilib bersa mavzuni o'qitishda samarali natijaga erishsa bo'ladi.

<sup>12</sup> Hakimova M. Nom ko'chishga turlarini o'qitishga doi mulohazalar.

<sup>13</sup> .Umumiy o'rta ta'lim maktabi 9-sinf darsligi.

Ma'no ko'chish turlari mavzusini o'qitishda zinama-zina, kichik guruhlar bilan ishlash, yo'naltiruvchi matn, rolli o'yin metodlarida samarali foydalansa bo'ladi. Zinama-zina metodi bilan o'quvchilarga mavzuni mushkamlashga ko'maklashish mumkin. Mavzuga oid oddiydan murakkabga qarab ketma-ketlikka asoslangan savollar yordamida ta'limni amalga oshirish "**zinama-zina**" metodi deb ataladi.<sup>14</sup> Metodni qo'llash tartibi:

O'qituvchi mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish jarayonida ma'no ko'chish turlarini bir necha kichik mavzularga bo'lib oladi. Masalan (sinekdoxa, Metonimiya bu ma'no ko'chish mavzusining bir qismi). Bu kichik qismlar umumiy mavzuni o'rganish uchun zarur bosqichlar (zinapoyalar) hisoblanadi. Ularni ketma-ketlikda o'rganish zinama-zina yuqorilab borish orqali mashg'ulot mavzusini to'liq o'rganish nazarda tutadi. O'qituvchi tomonidan sinektoxa nimaligi tushuntiriladi. Masalan Qisimdan butuni, butundan qisimni tushunish bu sinekdoxa "**Tirnoqqa zor**" ko'chim turi farzandsiz insonlarga nisbatdan ishlatilinishi tushuntirib berilgandan so'ng mavzuning boshqa qismiga metanimiya yoki metafora qismga o'tib tushuntirib berib, keyin o'quvchilardan o'tilgan qisimlarni taqqoslab chiqish vazifasi beriladi. Taqqoslash mavzuni yanada musahkamlashga samarali yordam beradi. Keyin o'qituvchi tomonidan mavzuga doir gaplar aralash holatda proyektorda ko'rsatib, qaysi gap qaysi ko'chim turiga oid ekanligi vazifa qilib beriladi. Ma'no ko'chish turlarini o'rganish o'quvchilarni nutqni jazibali, ta'sirchan, shirali bo'lishini taminlaydi.

Uyga vazifa sifatida xalq orasida o'g'zaki nutqda ishlatiladigan ma'no ko'chish turlariga misollar topib kelish topshirig'ini berish kerak. Bu vazifa bolani e'tiborli bo'lishga va o'tilgan mavzuni hayotda qay hollatda ishlatishni, amaliyotda qo'llanilishini anglab olishiga yordam beradi.

Xulosa: Yuqorida 9-sinflar uchun ma'no ko'chish turlarini o'qitishga oid bir qancha metodik tavsiyalar berilgan. Qanday vazifa berilsa, o'quvchilar bir mavzuni nazariyasini amaliyotda qo'llay olishi ularga berilgan vazifa orqali ona tili darslariga bo'lgan qiziqishni oshirish va shu bilan birgalikda o'quvchilarni xotirasini kuchaytirish, jamiyat bilan aloqaga kirishish, diqqatini bir joyga jamlashga yordam beradigan medod va topshiriqlar berilgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hakimova M. Nom ko'chish turlarini o'qitish masalasiga doir mulohazalar. \Global ta'lim milliy metodika taraqqiyoti.-Toshkent-2020.
2. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. Ona tili . Umumiy o'rta ta'lim maktablarning 9- sinflar uchun darslik.-Toshkent: Tasvir, 2019.
3. Avlayev O., Jo'rayeva S., Mirzayeva S. Ta'lim metodlari.-Toshkent-2017

<sup>14</sup> .Ta'lim metodlari-Toshkent-2017